

Nargiza SALIYEVA,
Jizzax Sambxram universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
E-mail: nagisalieva@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, (DSc) I.Siddiqov taqrizi asosida

SOCIAL AND POLITICAL IMPORTANCE OF IDEOLOGICAL EDUCATION AND IDEOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH IDEOSPHERE

Annotation

In this article, the problems of socio-political importance and specific mechanisms of ideological education and ideological factors in the formation of the youth ideosphere at the new stage of society's development are analyzed, and scientific conclusions are drawn up.

Key words: Democratic reforms, worldview, ideosphere, development, ideological education, ideological factor, political consciousness, political culture, interest.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖНОЙ ИДЕОСФЕРЫ

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы общественно-политического значения и конкретные механизмы идеологического воспитания и идеологические факторы формирования молодежной идеологии на новом этапе развития общества, а также формулируются научные выводы.

Ключевые слова: Демократические реформы, мировоззрение, идеосфера, развитие, идеологическое образование, идеологический фактор, политическое сознание, политическая культура, интерес.

YOSHLAR IDEOSFERASINI RIVOJLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYA VA MAFKURAVIY OMILLARNING IJTIMOY-SIYOSIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar idiosferasini shakllantirishda g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy omillarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda o'ziga xos mexanizmlari mavjudligi masalalari tahlil qilingan, ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Demokratik islohatlar, dunyoqarash, ideosfera, taraqqiyot, g'oyaviy tarbiya, mafkuraviy omil, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, manfaat.

Bugungi kunda respublikamizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirishda yoshlar idiosferasini rivojlantirish, jamiyatda mavjud bunyodkorlik g'oyasini yoshlar ongi va qalbga singdirish – yangilanayotgan jamiyat sharoitida tafakkur yangilanishini ta'minlashda zaruriy omildir. Shu bois, jamiyat taraqqiyotida mafkuraviy omil va uning genezisini, ijtimoiy-tarixiy asoslarining shaxs ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi va tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Zero, xalqimiz madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida, xususan yoshlar mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirishning tarixiy, ilmiy-nazariy asoslari va amaliy-uslubiy yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyotida mafkuraviy omilning o'rniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ma'lumki, mafkura – ijtimoiy-tarixiy hodisa. U ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf, millat, davlat, jamiyat manfaatini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, badiiy va diniy g'oyalar qarashlar tizimi sifatida jamiyat idiosferasini ta'minlashda o'ziga xos o'ringa ega.

Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor[1.2].

Mafkura jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimini rivojlantirishi va umumiy integratsiya jarayonlarining yo'nalishi, xususiyatlarining o'zgarishini muvofiqlashtiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning barqaror ishlashi shaxslarning mafkuraviy me'yorlar, qadriyatlarni o'zlashtirish mexanizmi, ya'ni eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, madaniy va boshqa yo'nalish va ma'naviy munosabatlar barqarorligini ta'minlovchi strategik maqsadlar ifodasidir.

Aholi mafkuraviy ongi darajasini, mafkuraviy dunyoqarashi xarakterini yaxshiroq tushunish uchun, ularning rivojlanish jarayonida qanday bosqichlardan o'tganligini, turli davrlarning mafkuraviy dunyoqarashi qanday xarakterda bo'lganligini anglash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Shu bois sotsiogenez jarayonida inson mafkuraviy ongi va dunyoqarashi qanday taraqqiyot bosqichlarini o'tganiga qisqacha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mafkuraviy bilimlarni, dunyoqarash shakli sifatida, ularning rivojlanishini bizningcha quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – ibtidoiy davr odamlarining tabiat va uning hodisalari to'g'risidagi sodda qarashlari. Bu insonning tabiatdan "ajralib chiqishidan" boshlanib, eramizdan oldingi III-I asrgacha bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqich – tarixda antik deb atalgan davrda yashagan olimlar tomonidan, keyinchalik turg'unlik sanalgan o'rta asrlarda to'plangan jamiyat haqidagi qarashlar. Eramizdan oldingi III-I asrlardan XIV asrgacha bo'lgan davr.

Uchinchi bosqich – shu paytgacha jamiyat haqidagi nazariyalar to'plangan juda ulkan faktologik materiallarni yanada boyitgan buyuk geografik kashfiyotlar davrida ularni sistemalashtirishga intilish. Boshqacha aytganda, uyg'onish davri – XIV-XVIII asrlarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi bosqich – XVIII – XIX asrning boshlarida, ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlarining mafkuraviy g'oyalar paydo bo'lishiga turtki berishi –siyosatshunoslik fanining mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi.

Beshinchi bosqich – XIX asrning boshidan 1866 yilgacha bo'lgan davr – evolyusion mafkuraning shakllanishi va qaror topishi, siyosiy tadqiqotlar chuqurlashtirilib, jahon xamjamiyati e'tiborning kuchayishi.

Oltinchi bosqich – XX asrning 80-yillaridan hozirga qadar ilm-fan mafkuraviy ilmlar va qarashlar kompleksida inson omilini e'tiborga oluvchi sistemali tahlil ustuvorlashib, jamiyat taraqqiyoti monitoringining amalga oshirilishi.

Qadimgi davrlarda totemizm elementlarini o'zida ifoda etuvchi qadimgi mifologik dunyoqarashning shakllanganligi ilmiy isbotini topgan.

Albatta, bu davrlarda zamonaviy ma'nodagi mafkuraviy ong bo'lmagan, ya'ni ular jamiyatni hozirgi davr odamlaridek anglashmagan. Ammo o'sha davrdagi, misol uchun urug'ning afsonaviy boshlovchilarini o'tmishning aksi sifatida, o'limdan keyin hayot kechirish mumkinligi haqidagi qarashlarni – kelajak sifatida qabul qilingan hayot realliklari sifatida muqaddaslashtirilgan.

Ibtidoiy odamning tabiat hodisalari sababini qidirishga intilishi natijasida tabiiy jarayonlarni boshqarishga mas'ul bo'lgan boshqa dunyodagi ruhlar to'g'risidagi dunyoning animistik manzarasi shakllangan. Asta-sekinlik bilan ana shu ruhlar haqidagi qarashlar xudolar haqidagi qarashlarga aylangan. O'rta asrlar mutafakkirlari asrlarida jamiyat haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino va boshqa Sharq mutafakkirlari insonning jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyati, borliqqa munosabati masalasiga doir maxsus asarlar yozib, ularni aql, ilm, bilish nuqtai nazaridan hal etishga harakat qilishi bilan ilmiy mafkuraviy dunyoqarash shakllanishining gnoseologik asoslarini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Ayniqsa, Forobiy qarashlarida insonning har bir narsaga me'yor bilan yondashuvi, tabiatga mehri, shafqati – inson fazilati hamda baxtga erishishning mukammal yo'li sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, “Baxtga erishishning birdan-bir yo'li ezgu ishlarni yaxshi niyatlar bilan bajarish va fazilatli amallarga tayanib, razolat va baxtsizlikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ishlardan o'zini tiya bilishdadir”[2]. Va bunday qarashlar targ'ibi ham har bir ijtimoiy-tarixiy davrda jamiyat idiosferasining rivojida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan.

Tarihdan ma'lumki, bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkaohimligidan qat'iyon voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishga olib keladi. Firkrimizcha, bironta ham mafkura mutlaq haqiqatni bilishga da'vo qilishi mumkin emas. Ma'naviylik va insonparvarlik barcha xalqlarning an'analari va urf-odatlarini, dini, tili va madaniyatini hurmat qilishni taqozo etadi.

Zamonaviy jamiyatimiz o'ziga xosligi shundaki, u millatni birlashtiruvchi qadriyatlarini, hayotning mafkuraviy ko'rsatmalarini aniqlashga harakat qilayotganligida. Biroq, agar mafkura siyosiy lashsa, u samarali faoliyat yuritmaydi va yoshlar uchun ijtimoiy identifikatsiya, integratsiya, safarbar qilish vazifalarini bajarmaydi. Agar uning tarkibiy tushunchalari ijtimoiy ongda qo'llab-quvvatlanmasa, jamiyat tomonidan qabul qilinmasa va ijtimoiy amaliyotda yangilanib turmasa, mafkura dogmatikaga aylanadi. Umuman olganda, mafkura integratsiyalash, ijtimoiy munosabatlarni qonuniylashtirish, qiymat-me'yoriy modelni saqlab qolish, ijtimoiy idealni shakllantirish, butun ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy va siyosiy tizimning faoliyati uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi.

Tarixdan shu narsa ayonki, har qanday ijtimoiy, tarixiy birlik, ijtimoiy guruh, davlat siyosiy tizimi o'z manfaatiga ko'ra mavjud bo'lgan. Bu manfaatlar g'oyalarda o'z ifodasini topgan. Tabiatlariga ko'ra ular bunyodkor yoki vayronkor g'oyalardan iborat bo'lgan. Har bir g'oya makonda kengayishga, zamonda abadiylikka intilgan, ijtimoiy borliqda bo'sh joy qoldirish imkonini bermagan. Qaysi bir mafkura bo'shlik qilsa uning o'rnini egallashga bir necha mafkuralar shay bo'lib turadi. Bu hol kecha ham shunday bo'lgan, bugun ham shundaydir va ertaga ham shunday bo'lib qoladi. Bu birinchidan.

Ikkinchidan esa, g'oyani, fikrni ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin.

Uchinchidan, bunday kurashni amalga oshirish uchun ikki omil zarur, ulardan biri jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi, o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi, dasturi bo'lmog'i kerak. Bu dastur, maqsad aniq hisob-kitoblar, chuqur tahlil, o'tkir aqlga, iymon e'tiqodga, yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Shunday maqsadlarning umri boqiydir. Axoli fikr qaramligi tafakkur qulligidan ozod bo'lgan bo'lmog'i lozim. U mustaqil fikr, qarash, baho sohibi bo'lmog'i kerak. Mana shu ikki omil bir biriga mos tushganidagina g'oyaga qarshi g'oya bilan kurasha olish mumkin.

Yoshlar - bu kelajakdagi kuchga ega bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib, ularning qadriyatlari kelajakda jamiyatning qadriyatlariga aylanadi. Shunga ko'ra, yoshlar mafkuraviy sotsializatsiya jarayonida o'zlashtiradigan g'oyaviy qadriyatlar O'zbekiston jamiyati idiosferasida aniq maqsad sari yo'naltirilgan strategik dunyoqarash rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzuni o'rganish shundan dalolat beradiki, qadimda, “Ideosfera” iborasi qo'llanmagan bo'lsa-da, unga doir bilimlar turli yondashuvlarda ifodalangan bo'lib, ularni barcha ruhiy-g'oyaviy voqea-hodisalar harakati yuz beradigan umumiy makon, barcha o'tib bo'lgan, mavjud va mavjud bo'ladigan g'oyalalar va mafkuralar olamidani iborat, degan tushunish shakllangan. Bunday qarashga ko'ra, azal-azaldan ideosferani olam va odam hayotining g'oyaviy, ruhiy va ma'naviy asosi sifatida tushunib kelingan. Ayni paytda, ushbu yondashuv insoniyat tarixini g'oya va mafkuralar tarixi sifatida tasavvur va talqin qilish uchun asos bo'lgan[5].

Jamiyatda yoshlar ijtimoiy guruh sifatida, ular uchun haqiqiy qadriyatlar mavhum tushunchalar emas, balki ular idiosferasi rivojini ta'minlovchi yetakchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Albatta, ular umumbashariy va hayotiy milliy qadriyatlar tizimi orqali uyg'unlashadi. Bunda inson hayoti, salomatligi, xavfsizligi, aloqa, oila, ish, ijtimoiy obro' va boshqalar muhim ahamiyatga ega. Ammo, zamonaviy yoshlar bir qator korporativ qadriyatlarga ega ekanligi aniq. Ular maxsus axloqiy tamoyillarni va xulq-atvor uslubini o'z ichiga oladi. Ularning aksariyati yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonining ijobiy sharti hisoblanadi. Ammo shu bilan birga, ma'lum bir ijtimoiy izolyatsiyani nazarda tutadigan korporatizm, ba'zi hollarda, ijtimoiy anomiyaning generatori bo'lgan bunday qadriyatlar va xulq-atvor shakllanishining omiliga aylanishi mumkin. Yoshlarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatishda umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarga, bag'rikenglik tamoyillariga tayanib ish ko'rishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jahonning demokratik mamlakatlari tajribasida mafkuraviy tarbiyaning boy imkoniyatlari, turli namunalari to'plangan. XX asr boshlaridan to 60-70-yillarigacha G'arbiy Yevropa va AQShda mafkurasizlashuvga, ya'ni ijtimoiy hayotni mafkuradan xoli (deideologizatsiya) etishga urindilar. Lekin bu yo'l o'zini oqlamadi. Chunki tarbiyadagi mafkuraviy bo'shliq o'z asoratlarini ko'rsata boshladi... Natijada “mafkuraviy yangilanish”, “qayta mafkuraviylashuv” (reideologizatsiya)ga kuchli zarurat tug'ildi va mafkurasizlik xatosini tuzatishga kirishildi. Shu tariqa, G'arbiy Yevropa va AQShning pozitivistik pedagogikasi ijtimoiy qadriyatlarga e'tiborni, mafkuraviy tarbiyani o'z ichiga oluvchi “maktabda o'quvchilarni siyosiy indoktrinatsiyalashni amalga oshirish” konsepsiyasini ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq qila boshladi.

Shu ma'noda ideosferani inson hayotining mazmuni, sifati, yo'naltirilganligi va har bir shaxsning insoniy qiyofasi bilan belgilangan qadriyatlar sohasiga mansub bo'lgan birlashtiruvchi g'oyaviy-ruhiy mezonlar sirasiga kiritish mumkin. Bu borada ideallik va voqelik nisbati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu masalada maxsus tadqiqotlar olib borilmoqda[6].

Amerika maktablarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish – o'z milliy manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Shu sababli AQShning “Millat” (“The Nation”) jurnali “Agar ijtimoiy fan o'qituvchisi maktab sinfidan o'zining liberal qarashlarini bildiradigan joy sifatida foydalana boshlar ekan, u tez orada ishsizga aylanadi”, - deya ogohlantirdi.

Shuning uchun ham jamiyat rivojida yoshlarning mafkuraviy tarbiyasi siyosiy masalalardan biriga aylangan. Fikrimizcha, mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat taraqqiyotini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad – intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlar ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohada tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoiy bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi – xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy mafkuramizning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish,

Mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon [7] sifatida qaraladi.

G'oyaviy tarbiya – inson ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayonidir. G'oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo'ladi. G'oyaviy tarbiya: oila, mahalla, ijtimoiy-ommaviy institutlar, ma'muriy-siyosiy tashkilotlar, mehnat jamoalarida olib boriladi.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlarda oliy o'quv yurtlari, OAV, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqozo qiladi. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri ham muloqot hisoblanadi. Chunki, inson qalbidagi va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, imon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televidenie, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rni e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan ba'mani so'z va hissiyotlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir gapni aytishi lozim bo'lsa, bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko'zidagi samimiyat va fikrni uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo'ladi. Shu bois auditoriyalarda o'qituvchi bilan o'quvchi, talaba va domla o'rtasidagi muloqot ta'lim va tarbiya jarayonida katta ahamiyatga ega.

Sog'lom dunyoqarash, mas'uliyati, imon va e'tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob'ektiv shart-sharoitlari va omillari mavjud:

- 1) ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – ma'rifiy muhit;
- 2) siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishi;
- 3) yoshlarning bilim darajasi;
- 4) odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish.

Mafkuraviy tarbiyani har bir davlat o'zining milliy mentaliteti, tarixi, qadriyatlari va madaniyatida kelib chiqib olib boradi. Misol uchun, AQSh fuqaro va yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashda bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otadi. Xuddi ana shu "Amerika orzusi" kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. O'z kuchiga ishonch, ruhiy ozodlik, mustaqil fikrlash g'oyasiga asoslaniladi. Ammo muammolar bor. AQSh ziyolilari tomonidan yangi mafkura "liberal-natsionalizm" mafkurasini yaratilib, milliy va irqiy jihatdan bo'lingan ijtimoiy guruhlarini "AQSh millatlar hamjamiyati" g'oyasi atrofida birlashtirish g'oyaviy mafkurasini ishlab chiqilgan.

Siyosatshunos olim Narzulla Jo'raevning fikricha, "Milliy g'oya – milliy ong va an'analar, turmush tarzi asosida shakllanadi, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda aql-idrok yo'rig'i bilan jipslashgan g'oyagina milliy mafkuraga aylanadi" [8].

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) Mafkuraviy dunyoqarash tarixdagi ma'naviy-madaniy merosni ijodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi vorislik munosabatlarini tahlil etish hozirgi davr mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirib, keskinlashayotgan va globallashtayotgan xalqaro muammolarni hal qilishning muhim omiliga aylanayotgan bir sharoitda yoshlar idiosferasida pozitiv o'zgarishlarni ta'minlab borish dolzarb vazifalar sirasidandir;

2) jamiyatda yoshlar idiosferasi mafkuraviy omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Turli tarixiy davrlarda yoshlar mafkuraviy dunyoqarashi shakllanishi esa ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar, chunonchi, afsonaviy, diniy mazmundagi g'oyalari sintezlashuvi zamonaviy mafkura haqidagi dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi;

3) yoshlar idiosferasi rivojini ta'minlovchi dunyoqarashning umuminsoniy xususiyatlarini shakllantirishda Sharq va G'arb allomalari ijod namunalari ilmiy o'rganish, umumlashtirish jahon hamjamiyati haqidagi dunyoqarashni universallashtiradi, bu jihat tafakkurning pozitiv taraqqiyotini ta'minlashda muhimdir;

4) barcha xalqlarning, shu jumladan, xalqimizning mentalitetiga xos mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirishda insoniyat tarixida yaratilgan jamiyat haqidagi nazariy-ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil etish va ulardan amaliy foydalanish muhim ahamiyatga ega. yoshlar idiosferasi rivoji bevosita ushbu omil bilan chambarchas bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020. <https://uza.uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ituv-30-09-2020>
2. Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. -Toshkent.: E'zuvchi, 2001, 12-b.
3. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. www.uza.uz
4. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon haet - pirovard maqsadimiz. VIII-jild. - T.: "O'zbekiston", 2000. –B. 464-465.
5. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. – T.: Ijod dunesi, 2001.
6. Sattorova D. Ijtimoiy ideal va reallik //Falsafa va huquq. -Toshkent, 2009. Maxsus son. – B. 56-57; Ijtimoiy ideal va reallik evolyutsiyasi // Jamiyat va boshqaruv. №-4. 2009. B.50-55.
7. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 297-bet
8. Juraev N. Mafkuraviy immunitet. T., «Ma'naviyat» nashr., 2000 yil.5-bet